O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi
Ichki audit bo‘limining 2026-yil 9 oylik faoliyati to‘g‘risida
MA’LUMOT

Moliyaviy intizomni mustahkamlash – tizimda shaffoflik kafolati.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasida moliyaviy intizomni mustahkamlash, davlat mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash hamda moliyaviy qonunbuzilishlarning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Qo‘mitaning Ichki audit bo‘limi tomonidan 2026-yilning o‘tgan 9 oyi davomida tizimdagi 6 ta tashkilotda nazorat tadbirlari o‘tkazildi. O‘rganishlar davomida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rildi.

Shuningdek, aniqlangan holatlar yuzasidan 3 ta tashkilotga oid hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Moliyaviy qoidabuzarliklarning oldini olish, mas’ul xodimlarning bilim va mas’uliyatini oshirish maqsadida ular bilan tushuntirish ishlari olib borilib, moliyaviy intizomga rioya etish hamda mablag‘lardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilmoqda.

Qo‘mita tizimida moliyaviy intizomni mustahkamlash, shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash, shuningdek, davlat mablag‘laridan oqilona foydalanishga qaratilgan ishlar izchil davom ettiriladi.

Ichki audit bo‘limi